

Foydali ma'lumot

Farzandingiz emlanmagan bo'lsa

Farzandingiz Shvetsiyadagi bolalar uchun emlash dasturiga kiritilgan kasalliklardan himoyalanganmi? Shunday bo'lsa, siz bolalar uchun jiddiy bo'lishi mumkin bo'lgan kasalliklarga oid ba'zi muhim narsalarni bilishingiz kerak.

Sog'liqni saqlash xodimlari bilan gaplasting Farzandingiz tibbiy yordamga muhtoj bo'lganda, siz doim tibbiy xodimlarga farzandingiz Shvetsiyaning bolalar uchun emlash dasturiga muvofiq emlanmaganligini aytishingiz kerak. Ular buni farzandingizga to'g'ri davolashni belgilash va yuqumli kasallikning oldini olish uchun bilishlari kerak.

Sayohat paytida yangiliklardan xabardor bo'ling

Shvetsiyada difteriya va qizamiq kabi kasalliklar kam uchraydi, ammo chet elda keng tarqalgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bolalar bilan sayohat qilishda nima amal qilishini o'qib chiqish muhimdir. 1177.se saytida bu haqda yaxshi ma'lumot topishingiz mumkin. Shuningdek, siz Shvetsiyadan boshqa davlatda bo'lganiningizda tibbiy xizmatlari uchun qayerga murojaat qilishni bilishingiz kerak.

Bolaga aytинг

Hayotdagи ba'zi vaziyatlarda kasallik bilan kasallanish xavfi boshqa holatlarga qaraganda kattaroqdir, masalan, chet elga sayohat qilganda yoki muayyan turdagи ishlarni bajarganda. Farzandingiz emlash orqali qanday kasalliklardan himoyalanmaganligini bilishi kerak.

Biz bilan bimalol

bog'lanishingiz mumkin

Siz farzandingiz o'tkazib yuborgan har qanday emlashni xohlagan vaqtda olishingiz mumkin. 18 yoshga to'limagan barcha bolalarga davlat emlash dasturi doirasida qo'shimcha emlashlar taklif etiladi.



Folkhälsomyndigheten

BU NARSALARGA ALOHIDA E'TIBOR BERING

Yaraga iflos tushdimi?

Agar farzandingiz qoqsholga qarshi emlanmagan bo'lsa va yaralanib, yaraga iflos tushsa yoki hayvon tishlasa, darhol shifokorga murojaat qilishingiz kerak. Qoqshol - juda jiddiy kasallik bo'lib, uni profilaktik davolanishni tezda olish muhimdir.

Farzandingiz yo'talayotgan odamni uchratdimi?

Agar farzandingiz olti oylikdan kichik bo'lsa va ko'kyo'tal bilan kasallangan odam bilan uchrashgan bo'lsa, siz o'sha kunning o'zida tibbiy maslahat olishingiz kerak bo'ladi. Ko'kyo'tal juda yuqumli kasallik bo'lib, kichik bolalar uchun juda jiddiy bo'lishi mumkin.

Tibbiy yordamga muhtojmisiz?

Avval qo'ng'iroq qiling
Ayrim kasalliklar juda yuqumli. Shuning uchun tez yordam bo'limiga yoki tibbiy klinikasiga kelishdan avval doim 1177 Vårdguiden (Sog'liqni saqlash bo'yicha qo'llanma) ga murojaat qilishingiz kerak. Joyidagi xodimlar infeksiya boshqa odamlarga tarqalishining oldini olish uchun tayyorgarlik ko'rishlari kerak, masalan, kutish xonasida.

Farzandingiz og'ir kasal bo'lsa, darhol tibbiy yordamga murojaat qilishingiz kerak. Agar favqulodda vaziyat bo'lsa, 112 raqamiga qo'ng'iroq qilishingiz kerak.



Farzandingizga quyidagi kasalliklarga qarshi himoya taklif qilinmoqda

Bu yerda emlash dasturiga kiritilgan kasalliklar haqida ko'proq ma'lumot mavjud bo'lib, farzandingiz uchun ushbu kasalliklarga qarshi himoya emlash orqali taklif etiladi.

Rotavirus infeksiyasi - bolalarda diareya, qusish va suvsizlanishi keltirib chiqaradigan oshqozon infeksiyasidir. Ba'zi hollarda bolaga shifoxona yordami kerak bo'lishi mumkin.

Difteriya juda yuqumli va jiddiy tomoq infeksiyasi bo'lib, yurak, buyraklar va asab tizimiga hayot uchun xavfli zarar yetkazishi mumkin.

Qoqshol tuproqda va hayvonlarning ichaklarida mavjud bo'lgan bakteriyalar tufayli yuzaga keladi. Bolani hayvon tishlasa yoki uning yarasiga iflos tushsa u qoqshol bilan kasallanishi mumkin. Agar infeksiya yuqsa, bolada mushaklarning spazmlari paydo bo'ladi, yutish va nafas olish qiyinlashadi. Qoshqol odamdan odamga yuqmайди.

Ko'kyo'tal juda yuqumli bo'lib, og'ir yo'talni keltirib chiqaradi va bir necha oy davom etishi mumkin. Chaqaloqlarda kasallik hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Poliomielit asab tizimiga zarar yetkazadi, bu esa falaj va umrbod zararga olib kelishi mumkin.

B-turidagi gemofil tayoqchasi (Hib) jiddiy infeksiyalarga olib kelishi mumkin, ayniqsa besh yoshgacha bo'lgan bolalarda. Hib meningitga olib kelishi mumkin, bu hayotga tahdid solishi yoki uzoq davom etadigan zararga olib kelishi mumkin.

Pnevmonokkk otit va sinusitga olib kelishi mumkin, shuningdek pnevmoniya, sepsis va meningit kabi og'irroq kasalliklarga olib kelishi ham mumkin.

Qizamiq juda yuqumli bo'lib, yuqori isitma, yo'tal va toshma paydo bo'lishiga olib keladi. Bolada ensefalit, otit va pnevmoniya kabi asoratlar paydo bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda qizamiq o'limga olib kelishi mumkin.

Parotit juda yuqumli va asosan tuprik bezlariga ta'sir qiladi, biroq meningit va ensefalit kabi asoratlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. O'g'il bolalarda bu orxitga olib kelishi mumkin.

Qizilcha - bu odatda yengil bo'lgan infeksiya, biroq homilador ayol infeksiyalangan bo'lsa, abort qilish yoki chaqaloq og'ir tug'ma kasalliklar bilan tug'ilish xavfi katta.

Inson papillomavirusi (HPV) teri va shilliq pardalarni jarohatlaydi. Infeksiya kamdan-kam hollarda seziladi va odatda o'z-o'zidan davolanib o'tib ketadi. Agar infeksiya davolanmasa, u hujayra o'zgarishiga olib kelishi va bachadon bo'yni saratoniga olib kelishi mumkin, shuningdek keyingi hayotda saratonning boshqa turlarini ham keltirib chiqarishi mumkin.

Gepatit B jigarning yallig'lanishiga olib keladi. Infeksiya ko'pchilik odamlarda davolanadi, biroq ba'zida virus tanada qoladi va u yerda jigarga zarar yetkazishi yoki uzoq muddatda jigar saratoniga olib kelishi mumkin. Bolalik davrida kasallansa, xavf eng yuqori bo'ladi.

BEPUL

18 yoshga to'lg'agan bolalar uchun emlash bepul. Bola ulg'aygandan so'ng, ya'ni 18 yoshga to'lg'andan so'ng, emlashlar tibbiyot klinikasida yoki emlash klinikasida to'lov evaziga amalga oshiriladi.

Qo'shimcha ma'lumot olishni xohlaysizmi?



Agar sizda biron bir savol bo'lsa yoki farzandingizni emlashni xohlasangiz, siz doim bolalarni parvarish qilish markaziga yoki maktabning o'quvchilar salomatligi xizmatlariga murojaat qilishingiz mumkin. Shuningdek, qo'shimcha ma'lumotni quyidagi manzildan olishingiz mumkin:

- 1177.se
- Folkhalsomyndigheten.se
- Lakemedelsverket.se

SHVETSIYANING EMLASH DASTURI

Quyidagilar jiddiy kasalliklarning oldini olish uchun Shvetsiyadagi barcha bolalarga taqdim etiladigan emlashlardir.

Bolalarni parvarish qilish markazi (BVC)



MAKTAB

